

Uzbekistan Airways MRO America xalqaro ko'rgazmasida ishtirok etmoqda

2022 28 Aprel

Markaziy Osiyo va MDHda aviatsiya texnikasini TKvaT bo'yicha eng yirik xizmat ko'rsatuvchilardan biri, "Uzbekistan Airways" AJ tarkibiy bo'linmasi hisoblanuvchi Uzbekistan Airways Technics aviakorxonasi Dallasdagi (AQSH) MRO America 2022 xalqaro ko'rgazma-konferensiyasida ishtirok etmoqda.

Ushbu tadbir Aviation week amerika jurnali tomonidan tashkil etilib, unda dunyoning 86 dan ortiq yetakchi kompaniyalari ishtirok etmoqda. O'zbekiston mutaxassislari tomonidan TKvaT bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlarning yuqori sifati, shuningdek, Airbus va Boeing oilasining zamonaviy laynerlari, shu jumladan Dreamliner'ni o'zlashtirishda jadal rivojlanib borayotgani ta'kidlandi.

Tadbir davomida UAT vakillari konferensiyalarda ishtirok etib, Boeing va Airbus kompaniyalari, shuningdek, ehtiyot qismlar yetkazib beruvchi korxonalar bilan qator uchrashuvlar o'tkazdilar.